

Date: 17th December-2025

**BOSHLANG'ICH O'QISH SAVODXONLIGI DARSLARINI ZAMONAVIY
AXBOROT TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA TASHKIL ETISHNING PIRLS
XALQARO BAHOLASH DASTURI BILAN UZVIY BOG'LIQLIGI**

Asqarova Irodaxon Abdulaziz qizi

Namangan davlat pedagogika

instituti 1-kurs magistranti

asqarovairoda2552@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada boshlang'ich sinflarda o'qish savodxonligi darslarini zamonaviy axborot texnologiyalari asosida tashkil etish PIRLS xalqaro baholash dasturida o'quvchilarning o'qish savodxonligini oshirish bilan bevosita bog'liqligi haqida malumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar. PISA, TIMSS, PIRLS, TALIS, Interaktiv mashqlar, jonli muloqot, jamoaviy ishlash, individual yordam, elektron vositalar.

Maktab o'quvchilarining bilimi va ko'nikmalarini shakllantirish, ularni milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik ruhida tarbiyalash, o'qituvchi kasbi nufuzini va pedagoglarning sifat tarkibini oshirish, darsliklar va o'quv metodik majmualarni zamon talablari asosida takomillashtirish, xalq ta'limi muassasalarining xalqaro standartlarga javob beradigan zamonaviy modellarini barpo etish maqsadida "O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik palatasi tomonidan 2020-yil 19-mayda qabul qilingan O'RQ-637-sonli "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022- yil 28-yanvardagi 2022–2026-yillarga mo'ljallangan "Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli farmoni asosida Respublikamizda bir qancha ishlar amalga oshirildi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 8-dekabrda "Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 997-sonli qarori bilan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi huzurida Ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish Milliy markazi tashkil etilib, O'zbekiston o'quvchilarining quyidagi xalqaro baholash dasturlari bo'yicha tadqiqotlarda ishtirok etishi belgilandi:

-PISA–The Programme for International Student Assessment – 15 yoshli o'quvchilarning o'qish, matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlardan savodxonlik darajasini baholash. TIMSS – Trends in International Mathematics and Science Study – 4- va 8-sinf o'quvchilarining matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlardan o'zlashtirish darajasini baholash; -PIRLS – Progress in International Reading and Literacy Study – boshlang'ich 4- sinf o'quvchilarining matnni o'qish va tushunish darajasini baholash. TALIS – The Teaching and Learning International Survey – rahbar va pedagog kadrlarning umumiy o'rta ta'lim muassasalarida o'qitish va ta'lim olish muhitini hamda o'qituvchilarning ish sharoitlarini o'rganish.



Date: 17th December-2025



PIRLS (inglizcha; Progress in International Leading Literacy Study’) – Bu turli mamlakatlarda boshlang’ich sinfda tahsil oluvchi o’quvchi yoshlarning matnni o’qish va tushunish darajalari sifatini baholab beruvchi xalqaro baholash tizimidir. Tadqiqot davriy ravishda- har besh yilda bir marta o’tkaziladi va hozirgacha ham besh marta ; 2001,2006,2011,2016,2021-yillarda o’tkazilgan. PIRLS tadqiqoti faqatgina o’quvchilar savodxonligini aniqlashga yo’naltirilgan topshiriqlar tizimidan iborat bòlibgina qolmay, òz ichiga bu borada olib borilayotgan ta’limga olib borilayotgan islohotlarni aniqlovchi sòrovnomalarni ham oladi. Bunday sòrovnomalar maktab ma’muriyati, òqituvchilar hamda ota-onalar yoki vasiylar òrtasida amalga oshiriladi. O’quvchilarning ta’lim olishdagi imkoniyatlari va sharoitlari haqidagi sòrovnoma ma’lumotlarni ta’lim natijalarini talqin qilishda muhim ro’l òynaydi. PIRLS tadqiqotning muhim jihatlaridan biri shuki, dasturda erishilgan natijalar tahlili hamda òtkazilgan sòrovnomalar ma’lumotlarining umumlashtirilishi dunyo bòylab o’qish savodxonligini oshirishdagi eng yaxshi tajribalarga doir qimmatli ma’lumotlarni tòplash imkonini beradi. Hozirgi vaqtda PIRLS ta’rifiga kòra, òqish savodxonligini jamiyat tomonidan talab qiladigan va inson tomonidan qadrlanadigan, yozma shakllarini tushunish va ulardan foydalanish , shuningdek matnlardan turli shakllarda ma’no hosil qila olish qobiliyati hamdir.

Zamonaviy axborot texnologiyalari va PIRLS baholash dasturining bog’liqligi. Interaktiv o’qish va tushunish: Zamonaviy darsliklar, elektron-kitoblar, o’quv ilovalari va onlayn platformalar o’quvchilarga matn bilan jonli muloqot qilish imkoniyatini beradi. Misol uchun, so’zlarning ma’nosini tushunish, ularning sinonimlari va antonimlarini ajrata olish, matnning asosiy g’oyasini aniqlash uchun interaktiv mashqlardan foydalanish mumkin. Bu PIRLS dasturining asosiy maqsadlaridan biri bo’lgan matnni chuqur tushunish ko’nikmasini rivojlantiradi.

O’z fikrini ifodalash va qabul qilish: Darslarda zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish o’quvchilarga o’z fikrlarini og’zaki va yozma shaklda yanada aniqroq va qiziqarli tarzda ifodalashga undaydi. Turli elektron vositalar (masalan, taqdimotlar, video-lavhalar, onlayn-forumlar) yordamida o’quvchilar o’z fikrlarini boshqalar bilan almashishadi va ularning fikrlarini tahlil qilishni o’rganishadi. Bu ko’nikma ham PIRLS baholashida muhim o’rin tutadi.

Jamoaviy ishlash va aloqa: zamonaviy axborot texnologiyalari o’quvchilarni jamoaviy ishlashga jalb etadi. O’quvchilar birgalikda loyihalar ustida ishlash, onlayn almashuvlar qilish va bir-birlariga yordam berish orqali o’zlarining ijtimoiy-emotsional ko’nikmalarini ham rivojlantiradilar. PIRLS dasturi ham o’quvchilarning hamkorlikdagi ishlarini baholaydi.

Baholash va nazorat: Zamonaviy axborot texnologiyalari o’qituvchilarga o’quvchilarning yutuqlarini baholashda va rivojlanishini nazorat qilishda yordam beradi. Onlayn testlar, qisqa savol-javoblar va boshqa elektron vositalar o’quvchilarning o’zlashtirish darajasini tez va aniq baholash imkoniyatini beradi. Bu esa, o’qituvchilarga dars jarayonini moslashtirishga va o’quvchilarga individual yordam ko’rsatishga imkon beradi.

Date: 17th December-2025

Shunday qilib, boshlang'ich sinflarda o'qish savodxonligi darslarini zamonaviy axborot texnologiyalari asosida tashkil etish, o'quvchilarda matnni tushunish, o'z fikrini ifodalash, jamoaviy ishlash va aloqa qilish kabi ko'nikmalarni shakllantirish orqali, ularning o'qish savodxonligini oshirishga yordam beradi. Bu esa, o'z navbatida, PIRLS xalqaro baholash dasturida o'quvchilarning muvaffaqiyatli ishtirok etishlarini ta'minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" gi PF 5712 sonli Farmoni.
2. "Xalqaro tadqiqotlar tajribasida boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligini baholash" Djurayeva Perdegul Saidovna, Navoiy viloyat XTXQTMOHM Jurnal -"Oriental Art and Culture" Scientific-Methodical Journal - (3) III/2020 ISSN 2181-063X 235-bet.
3. Xalqaro tadqiqotlarda boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligini baholash (Boshlang'ich sinf o'qituvchilar ,metodistlar va soha mutaxassislari uchun metodik qo'llanma) . Ta'lim instituti huzuridagi Ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish Milliy markazi. Toshkent 2019-yil.
4. Qudratova Shahnoza Bahtiyorovna,Aytbaeva Jadra Begaliyevna. XALQARO PIRLS BAHOLASH DASTURI. Ilmiy maqola.Xalqaro baholash tizimi:islohot ,muammo va yechimlar. Toshkent, 27-28noyabr,2024.
5. Alisher o'g'li A. A. et al. BOLALAR JISMONIY TARBIYASIDA QO'LLANILADIGAN METODLARNING NAZARIY ASOSLARI //Miasto Przyszłości.– 2024.– T. 44.– C. 584-586.

